

---

**MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING ZAMONAVIY TIJORAT BANKLARI  
FAOLIYATIDAGI ROLI VA O'RNI**

---

**Tursunov Faridun Mustafoyevich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Bank ishi" kafedrası assistenti

[tursunovfaridun4330@gmail.com](mailto:tursunovfaridun4330@gmail.com)**Nurlibayeva Almagul Azatovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis institut talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy bank xizmatlarining zamonaviy tijorat banklari faoliyatigadgi ahamiyati, ularni ko'rsatish kanallari va buni yanada kengaytirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o'rganib chiqildi. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish holati to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Ushbu maqolada muallif tomonidan o'z fikr mulohazalari berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy bank xizmatlari, internet-banking, mobil-banking, Bank-mijoz, onlayn-banking

Ushbu tezisda masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda uchraydigan ba'zi muammolar o'rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba'zi amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlari haqidagi barcha to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashda eng samarali yo'l mijozlarning unga bo'lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar raqobatbardoshlikni ta'minlashi uchun zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezmoqdalar. Xususan bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'z nutqida "...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko'rishimiz lozim. Bank sohasidagi muammolarni bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish doimo dolzarb bo'lib qoladi. Yangi bank mahsulotlarini qo'llash uchun bankning marketing xizmatlari ma'lumotlari va materiallari asosida strategiya va siyosatni tayyorlash kerak. Bankning strategiyasi va siyosati bank mahsulotlarini tayyorlash, etkazib berish va sotish nuqtai nazaridan aniq shakllantirilishi kerak. Har bir bank bozorni o'rganish asosida bank mahsulotini modifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishi va yangi bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha uzoq muddatli biznes-rejani ishlab chiqishi kerak. Ishlab chiqarish munosabatlari dinamikasining yuqori darajasi, tovar bozori munosabatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi zamonaviy pul-kredit siyosati va bank biznesini boshqarishning aniq taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish zaruratini tug'dirmoqda. Zamonaviy tahlil va monitoring shuni ko'rsatadiki, pulkredit siyosatidan kelib chiqadigan institutsional iqtisodiy muammolarni kredit qo'yilmalari darajasi, bank kapitalining kontsentratsiyasi, kredit va depozitlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi, resurslarni jalb qilish imkoniyati va boshqa ko'plab omillar orqali hal qilish mumkin. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida banklarning xatti-harakatlari stsenariysini ishlab chiqishda modellashtirish, matematik, statistik usullar va ekspert xulosalaridan foydalanish kerak.

Zamonaviy bank faoliyatini ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshiruvchi va ularning ro'yxatini kengaytiruvchi ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kredit tashkilotlari tomonidan yangi bank texnologiyalarini joriy etish ular faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. So'nggi yillarda kredit tashkilotlarida bank avtomatlashtirilgan tizimlari va masofaviy bank texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq holda bank faoliyatini jadal texnologik modernizatsiya qilish jarayoni amalga oshirilmoqda, bu esa kredit tashkilotlarining mijozlar bazasini va bank xizmatlari taklifini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining afzalliklarini ro'yobga chiqarish uchun to'lov infratuzilmasining operativ muvofiqligini oshirish, yagona qoidalar va standartlar asosida kliring va hisob-kitob xizmatlarini markazlashtirish zarur. Yangi texnologiyalar va yangi bank mahsulotlarini joriy etish kredit tashkilotlariga bank operatsiyalari tezligi va sifatini sezilarli darajada oshirish, aholi uchun hisob-kitoblarni soddalashtirish, bank hisobvaraqlaridan naqd pul olish uchun keng imkoniyatlar yaratish va fuqarolarning mulkiy manfaatlarini qalbakilashtirishdan himoya qilish imkonini beradi. Bank xizmatlari rivojlanishi past bo'lgan chekka hududlarga, shuningdek, kredit tashkilotlari, ularning filiallari yoki ichki tarkibiy bo'linmalari mavjud bo'lmagan hududlarga bank mahsulotlari va xizmatlarini ilgari surish hamda chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholining bank xizmatlari bo'yicha ehtiyojini shahar markazlariga yoki bank ofislariga tashrifisiz masofaviy qondirish orqali mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash zaruriyati qanchalik muhimligi pandemiya sharoitida o'z aksini topdi.

So'ngi yillarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida banklar tomonidan turli innovasion bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Xususan, masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi an'anaviy «Bank-mijoz» tizimi respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, barcha banklarda tatbiq qilingan. Ushbu tizimni qo'llash uchun mijozning kompyuterida maxsus dastur o'rnatilib, aloqa kanallari orqali bankning axborot tizimi bilan o'zaro muloqot ta'minlanadi. Ammo «Bank-mijoz» tizimini qo'llashda muayyan ish joyiga bog'lanish hamda ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalanish zarurligi sababli, ushbu tizimdan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun Internet tarmog'i va oddiy brauzer, ya'ni mijozni tarmoqqa kirishini ta'minlovchi keng tarqalgan dastur orqali ishlashini ta'minlovchi onlayn-banking (internetbanking) tizimi keng qo'llaniladi. Internet-banking texnologiyasi bank uchun ham, mijozlar uchun ham qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Jumladan, mijoz o'z hisobvarag'i bo'yicha bank amallarini bajarish uchun bankka bormasdan, Internet orqali xohlagan joyidan, xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, hisobvarag'ining holati, mablag'ning kelib tushishi, to'lovlarning aks ettirilishi kabi amallar haqida ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu esa mijoz uchun o'z vaqti va mablag'ini tejash, manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan bankni ixtiyoriy ravishda tanlash va o'z mablag'larini tezkor boshqarish afzalliklarini yaratadi. Shuningdek, "Uzcard" banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan tijorat banklari bilan hamkorlikda "on-line" rejimida ishlaydigan milliy texnologik platformani yaratilishi Internet-banking xizmatlari orqali real vaqt ichida mijoz o'z kartochka hisobvaraqlarini boshqarishi, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi uchun imkoniyatini beradi.

2013 yil 1 sentyabridan boshlab Yagona Umumrespublika Protessing Markazi va "CLICK" kompaniyasining UZCARD-CLICK qo'shma loyihasi hayotga tatbiq etildi. Mazkur loyiha doirasida O'zbekistondagi istalgan bankning barcha UZCARD online plastik kartalari foydalanuvchilari istalgan bank yoki infokioskda UZCARD SMS-axborot berish xizmatini mobil telefonga ulashlari mumkin. So'ngra SMSaxborot berish xizmati ulangan mobil telefondan bepul

USSD so'rovini jo'natib, o'z UZCARD online plastik kartasini tizimga bog'lash zarur. Shundan keyin foydalanuvchi mobil telefon orqali plastik kartadan to'lovni amalga oshira oladi. Barcha to'lovlar vositachilik haqisiz amalga oshirilishi mazkur loyihaning farqlanuvchi xususiyati hisoblanadi. Online plastik kartalar foydalanuvchilariga innovasion xizmatlarni taqdim etayotgan bunday zamonaviy loyihalarni joriy etish ko'p jihatdan mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishiga imkon yaratmoqda. Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish barcha banklar tomonidan doimiy ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Anu shu choratadbirlar samarasi o'laroq, 2020 yil 1 yanvaro holatiga xizmatdan foydalanuvchilar umumiy soni 10 mln. dan ortgan.

mlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash va boshqalar. So'ngi yillarda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida banklar tumonidan turli innovasion bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Xususan, masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi an'anaviy «Bank-mijoz» tizimi respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, barcha banklarda tatbiq qilingan. Ushbu tizimni qo'llash uchun mijozning kompyuterida maxsus dastur o'rnatilib, aloqa kanallari orqali bankning axborot tizimi bilan o'zaro muloqot ta'minlanadi. Ammo «Bank-mijoz» tizimini qo'llashda muayyan ish joyiga bog'lanish hamda ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalanish zarurligi sababli, ushbu tizimdan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shuning uchun Internet tarmog'i va oddiy brauzer, ya'ni mijozni tarmoqqa kirishini ta'minlovchi keng tarqalgan dastur orqali ishlashini ta'minlovchi onlayn-banking (internet-banking) tizimi keng qo'llaniladi. Internet-banking texnologiyasi bank uchun ham, mijozlar uchun ham qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Jumladan, mijoz o'z hisobvarag'i bo'yicha bank amallarini bajarish uchun bankka bormasdan, Internet orqali xohlagan joyidan, xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, hisobvarag'ining holati, mablag'ning kelib tushishi, to'lovlarning aks ettirilishi kabi amallar haqida ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu esa mijoz uchun o'z vaqti va mablag'ini tejash, manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan bankni ixtiyoriy ravishda tanlash va o'z mablag'larini tezkor boshqarish afzalliklarini yaratadi.

Shuningdek, "Uzcard" banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan tijorat banklari bilan hamkorlikda "on-line" rejimida ishlaydigan milliy texnologik platformani yaratilishi Internet-banking xizmatlari orqali real vaqt ichida mijoz o'z kartochka hisobvaraqlarini boshqarishi, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirishi uchun imkoniyatini beradi. Mazkur tizimning evolyusiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, masofaviy bank xizmatlari tashabbuskorlar Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi va "CLICK" kompaniyasi sanaladi. 2013 yil 1 sentyabridan boshlab Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi va "CLICK" kompaniyasining UZCARD-CLICK qo'shma loyihasi hayotga tatbiq etildi. Mazkur loyiha doirasida O'zbekistondagi istalgan bankning barcha UZCARD online plastik kartalari foydalanuvchilari istalgan bank yoki infokioskda UZCARD SMS-axborot berish xizmatini mobil telefonga ulashlari mumkin. So'ngra SMSaxborot berish xizmati ulangan mobil telefondan bepul USSD so'rovini jo'natib, o'z UZCARD online plastik kartasini tizimga bog'lash zarur. Shundan keyin foydalanuvchi mobil telefon orqali plastik kartadan to'lovni amalga oshira oladi. Barcha to'lovlar vositachilik haqisiz amalga oshirilishi mazkur loyihaning farqlanuvchi xususiyati hisoblanadi. Online plastik kartalar foydalanuvchilariga innovasion xizmatlarni taqdim etayotgan bunday zamonaviy loyihalarni joriy etish ko'p jihatdan mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Murojaat (2018) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi gazetasining 23 dekabr soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018- 2020 yillar.
4. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
5. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014.
6. Забродская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г.
7. Шарипова Нигина Джоракуловна, Джураев Искандар. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ. Эфиопский международный журнал многопрофильных исследований , 11 (04), 66–68.
8. Sharipova Nigina Jorakulovna. Maksudov Orif Shakirovich , (2023). THE IMPORTANCE OF MONETARY REFORMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 880–883.
9. Шарипова Нигина Джуракуловна Самаркандский институт экономики и сервиса Ассистент. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. Zenodo.
10. Шарипова, Н.Д. Акобиров, А.П., и (2023). ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. SCHOLAR , 1 (35), 66–73.